
Rishtonda kulolchilik mahsulotlari sanoat zonasi ish boshladi: umumiy loyiha qiymati 75,8 milliard so'm bo'lgan 37 ta korxonada 7200 dan ziyod ish o'rni yaratildi

Rishton tumani Navoiy mahallasida joylashgan sobiq "Badiiy kulolchilik zavodi" negizida tashkil etilgan Kulolchilik mahsulotlari sanoat zonasi tantanali tadbir bilan ish boshladi.

Tadbirda ishtirok etgan viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Davlatimiz rahbarining alohida e'tiborlari tufayli azaldan hunarmandlar yurti bo'lgan Rishtonda kulolchilik jadal rivojlanishga yuz tutganini qayd etib, Prezidentimizning o'tgan hafta viloyatimizga tashrifidan so'ng tumanga soha rivoji uchun yana 100 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratilishiga qaror qilinganini ma'lum qildi.

Joriy yil fevral oyida viloyat hokimining Rishton tumanidagi o'rganishlari jarayonida hududda kulolchilikni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olingan edi.

O'tgan davr mobaynida viloyat mahalliy byudjeti hisobidan sanoat zonasining ichki yo'llari to'liq asfaltlandi, bundan tashqari sobiq zavod hududida ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida 3,3 mlrd. so'm mablag' ajratilib tabiiy gaz tarmog'i, 340 mln. so'm mablag' yo'naltirilib, elektr tarmoqlari tortildi.

Ixtisoslashgan sanoat zonasida umumiy loyiha qiymati 75,8 milliard so'm bo'lgan 37 ta chinni va keramika buyumlari ishlab chiqarish va bezak berish korxonasi tashkil etildi, 7200 dan ziyod ish o'rni yaratildi.

Tadbirkor Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan "MM Porcelain" MChJ shaklida oilaviy korxonasi qoshidagi chinni mahsulotlariga bezak berish sexida bugungi kunda 100 dan ortiq xotin-qizlar doimiy ish bilan ta'minlangan. Shuningdek, 300 ta xonadondan 700 nafardan ortiq ishsiz mahalla ayollari ham kasanachilik asosida ishga jalb etib kelinmoqda. Korxonada tomonidan bu yil 1 million dollarlik chinni buyumlari eksporti amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Shokirjon Ahmadjonov rahbarlik qilayotgan "Mingboshi Keramik" oilaviy korxonasi tomonidan qiymati 10,0 mlrd. so'm bo'lgan investitsiya loyihasi asosida yirik kulolchilik kooperatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, korxonada 100 nafar doimiy ish o'rinlari bilan birgalikda 3000 nafardan ortiq kasanachilik yo'nalishida o'zini-o'zi band qilish orqali yangi ish o'rinlari yaratilgan. Korxonada tomonidan joriy yilda Rossiyaning Yekaterinburg shahriga mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha 5 mln. dollarlik eksport shartnomasi imzolangan.

Hozirda bunday ixtisoslashgan sanoat zonalarini tumanning To'da, Dahbed, Dehqonobod va boshqa mahallalarida ham tashkil etilmoqda.

Noyob sopollari va koshinlik san'ati bilan dunyoga mashhur Italiyaning Deruta hamda Turkiyaning Iznik shaharlari bilan Rishton tumani o'rtasida joriy yilda xalqaro hamkorlik aloqalari ham o'rnatildi.

2022-05-19 05:23:38